

YOLG'IZLIK IQTISODIYOTI: INSONLAR YOLG'IZLIGI HAM BIZNESGA AYLANISHI MUMKINMI?

Rajabboyeva Farzona Safo qizi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti 1-kurs talabasi rajabboyevafarzona@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy jamiyatda kuchayib borayotgan yolg'izlik fenomenining ijtimoiy-iqtisodiy va yangi biznes modellari yaratishdagi o'rni tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar rivoji, urbanizatsiya hamda individualizm sabab ko'plab insonlar jamiyatdan izolyatsiyalanib olishmoqda. Bu esa iqtisodiyotda "yolg'izlik iqtisodiyoti" deb ataluvchi yangi bozor segmentini shakllanishiga turtki bo'ldi. Tadqiqot davomida dating platformalari, sun'iy intellekt asosidagi virtual suhbatdoshlar, psixologik xizmatlar va muloqotga asoslangan pullik xizmatlar singari ommalashib borayotgan bizneslar orqali bu segmentning iqtisodiy rivojlanishi o'rganildi. Shuningdek yolg'izlikning mehnat unumdorligi, iste'molchi talablari va sog'liqni saqlash xarajatlariga ta'siri ham ko'rib chiqildi. Maqola yakunida ushbu sohaning iqtisodiy tizimdagi roli va istiqbollari yuzasidan shaxsiy xulosalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: "yolg'izlik iqtisodiyoti", raqamli iqtisodiyot, sun'iy intellekt, dating platformalari, ijtimoiy izolyatsiya, psixologik xizmatlar, "rent a friend".

Аннотация. В данной статье анализируется роль феномена одиночества, усиливающегося в современном обществе, в социально-экономических процессах и формировании новых бизнес-моделей. Развитие цифровых технологий, урбанизация и индивидуализм приводят к тому, что многие люди изолируются от общества. Это, в свою очередь, способствует формированию нового рыночного сегмента, называемого "экономикой одиночества". В ходе исследования было изучено экономическое развитие данного сегмента через популярные бизнес-направления, такие как платформы знакомств, виртуальные собеседники на основе искусственного интеллекта, психологические услуги и платные сервисы, основанные на общении. Также рассмотрено влияние одиночества на производительность труда, потребительский спрос и расходы на здравоохранение. В заключении статьи представлены авторские выводы о роли и перспективах данной сферы в экономической системе.

Ключевые слова: "экономика одиночества", цифровая экономика, искусственный интеллект, платформы знакомств, социальная изоляция, психологические услуги, "rent a friend".

Abstract. This article analyzes the role of the growing phenomenon of loneliness in modern society within socio-economic processes and the creation of new business models. The development of digital technologies, urbanization, and individualism has led many people to become socially isolated. As a result, a new market segment known as the "loneliness economy" has emerged. The study examines the economic development of this sector through increasingly popular businesses such as dating platforms, artificial intelligence-based virtual companions, psychological services, and communication-based paid services. In

addition, the impact of loneliness on labor productivity, consumer demand, and healthcare costs is discussed. The article concludes with the author's personal observations and conclusions regarding the role and future prospects of this sector in the economic system.

Keywords: “loneliness economy,” digital economy, artificial intelligence, dating platforms, social isolation, psychological services, “rent a friend”.

KIRISH

So‘nggi yillarda texnologik taraqqiyot mislsiz darajada tezlashib borayotganiga guvoh bo‘lmoqdamiz. Sun‘iy intellekt, ijtimoiy tarmoqlar va onlayn kommunikatsiya vositalari insonlar o‘rtasidagi muloqot masofasini qisqartirishi kerak edi, biroq texnologik jihatdan ulangan jamiyatda insonlar psixologik va ijtimoiy jihatdan yolg‘izlanib bormoqdalar. Ayniqsa, yirik shaharlarda va ko‘p vaqtini virtual olamda o‘tkazuvchi shaxslar orasida ijtimoiy izolyatsiyalashuv kuzatilmoqda. Bu esa yolg‘izlikni nafaqat psixologik muammo, balki iqtisodiy ahamiyatga ega global hodisaga aylantirmoqda. Ya‘ni insonlarning hissiy ehtiyojlari iqtisodiy tizimning bir qismiga aylanib borayotgani “yolg‘izlik iqtisodiyoti” singari yangi bozor segmentini hosil qildi. Turli xil dating platformalari, sun‘iy intellektga asoslangan virtual suhbatdosh ilovalari, onlayn psixologik konsultatsiyalari, “rent a friend” singari ushbu bozorning bir qismi bo‘lgan xizmat turlari esa odamlarning yolg‘izlikdan qochish va hissiy qo‘llab quvvatlashga bo‘lgan ehtiyoji sabab ommalashib borayapti. Shuningdek yolg‘izlik endi shaxsiy muammo sifatida emas, balki mehnat unumdorligi, iste‘molchilar talabi, sog‘liqni saqlash xarajatlari hamda raqamli xizmatlar bozori bilan bog‘liq ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa yoshlar orasida virtual muloqotning real aloqalarning o‘rnini bosishi iqtisodiy va ijtimoiy tendensiyalarni yuzaga keltirmoqda.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi esa zamonaviy jamiyatda yolg‘izlikning iqtisodiy resursga aylanish jarayonini tahlil qilish, uning zamonaviy biznes modellari shakllanishidagi o‘rnini aniqlash va bir qator ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini baholashdan iborat. Shu bilan birga tadqiqot davomida “yolg‘izlik iqtisodiyoti”ning jamiyatga hamda iqtisodiyotga qanaqa ijobiy va salbiy ta‘sirlari mavjudligi ilmiy va amaliy tomondan o‘rganildi.

Maqola davomida “yolg‘izlik iqtisodiyoti” fenomenini o‘rganish uchun sifat tahlil usullaridan foydalanildi. Nazariy asos sifatida Jahon sog‘liqni saqlash tashhhiloti hisobotlari, ilmiy maqolalar hamda amaliy jihatdan internet platformalaridagi foydalanuvchilar fikrlari olindi. Shuningdek kontent-tahlil usuli orqali dating platformalari, sun‘iy intellektga asoslangan virtual suhbatdosh ilovalar, online psixologik xizmatlar va pullik muloqot xizmatlarining nega ommalashayotgani ham o‘rganildi. Tadqiqotning metodogik yondashuvi fanlararo xarakterga ega bo‘lib, u iqtisodiyot, sotsiologiya, raqamli texnologiyalar va psixologiya bilan bog‘liq nazariyalarni qamrab oladi. Shular orqali ushbu maqolada yolg‘izlikning ham ijtimoiy muammo, ham iqtisodiy resurs sifatida yangi bizneslarga aylanish jarayonini ko‘rishimiz mumkin.

XXI asrda raqamli texnologiyalar, urbanizatsiya va individual hayot tarzi insonlar kundalik turmush tarzini tubdan o‘zgartirdi desak mubolog‘a bo‘lmaydi. Avvallari insonlar oila, mahalla, hamkasblar va boshqalar bilan faol tarzda muloqotlar amalga oshirishgan

bo'lishsa, hozirda esa ijtimoiy tarmoqlar va virtual ilovalar bularning o'rnini egallamoqda. Bu esa o'z o'rnida insonlarning izolyatsiyalashuvi va yolg'izlikka sabab bo'lmoqda. JSST ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'ylab taxminan har olti kishidan biri o'zini yolg'iz his qiladi va bu yakkalanib qolish hissi insonlar salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi⁸. Ya'ni bu depressiya, stress, yurak-qon tomir kasalliklari hamda erta o'lim xavfini oshiradi. Shu sabab bu muammo global darajada ijtimoiy-iqtisodiy tahlil qilinishi lozim. Iqtisodiy jihatdan yolg'izlikning keng tarqalishi yangi ehtiyojlarni yuzaga keltiradi, xususan, insonlarning hissiy qo'llab-quvvatlash, muloqot va e'tiborga bo'lgan ehtiyoji shu kabi xizmatlarga bo'lgan talabni oshirmoqda. Natijada "yolg'izlik iqtisodiyot" deb ataluvchi yangi bozor segmenti shakllandi va bu segment insonlarning emotsional ehtiyojlarini qondirish orqali daromad oluvchi biznes modellaridan iborat. Hozirda ommalashayotgan virtual sun'iy intellekt suhbatdoshlar, onlayn psixologik konsultatsiyalar, dating platformalari va chatbotlar bularning yorqin misolidir.

So'nggi yillarda sun'iy intellektning jadal rivojlanishi "yolg'izlik iqtisodiyoti"ning kengayishiga katta ta'sir ko'rsatdi desak adashmagan bo'lamiz. Sun'iy intellekt asosidagi virtual hamroh ilovalari foydalanuvchilar bilan odatiy suhbat qurish, maslahat berish, hissiy qo'llab-quvvatlash hamda do'st vazifasini bajarishga mo'ljallangan. Xususan, Replika va Paradot kabi platformalar ham foydalanuvchilarning shu kabi ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qiladi. Ushbu ilovalarda sun'iy intellekt foydalanuvchining yozish uslubi, qiziqishlari va hissiy holatini o'rganib, shunga asoslanib javob qaytaradi. Natijada, ilova foydalanuvchilarida "yaqin do'sti" bilan muloqot qilgandek taassurot paydo bo'ladi va bu xizmatlar asosan yoshlar orasida keng foydalanilmoqda⁹. Mazkur platformalar iqtisodiy jihatdan ham juda katta foyda keltirmoqda. Chunki ushbu platformalar obuna (subscription) tizimi orqali ishlaydi. Foydalanuvchilar ham uzoq muddatli suhbatlar, premium funksiyalar, shaxsiylashtirilgan javoblar yoki romantik muloqot imkoniyatlari uchun pulini ayashmaydi. Hattoki koreys kino ijodkorlari tomonidan shu kabi ilovalarning yoshlar orasida ommalashib borayotganidan hamda ushbu platformalardan o'ziga ideal juft yaratish maqsadida foydalanayotganlaridan ilhomlanib "Boyfriend on demand" nomli drama suratga olishgan¹⁰. Bu esa insonlarning hissiy ehtiyojlari iqtisodiy mahsulotga aylanayotganini ko'rsatadi. Bundan tashqari, virtual muloqot bizneslari faqat sun'iy intellekt hamrohlar bilan cheklanib qolmagan. Onlayn psixologik konsultatsiyalar, anonim suhbat platformalari va "rent a friend" kabi xizmatlar ham ushbu iqtisodiy segmentning bir qismidir. Misol sifatida esa Yaponiyada "rent a friend" xizmatlarining ommalashganini ko'rsatishimiz mumkin¹¹. Insonlar yolg'izlik hissini kamaytirish yoki oddiy ijtimoiy hamroh topish maqsadida ma'lum haq evaziga suhbatdosh yollaydilar. Ayrim hollarda mijozlar bunday xizmatlardan birga ovqatlanish, sayr qilish, tadbirlarga borish yoki shunchaki suhbatlashish uchun foydalanadilar. Masalan, Yaponiyalik Shoji Morimoto ismli shaxs "ijaraga do'st" sifatida mashhur bo'lib, u insonlarga oddiy hamrohlik qilish orqali daromad

⁸ World Health Organization [WHO].(2025). From loneliness to social connection: charting a path to healthier societies <https://www.who.int/publications/i/item/978240112360>

⁹ Associated Press. (2024). AI girlfriend and boyfriend apps are becoming more popular. AP News.

¹⁰ Review and summary: Boyfriend on demand. <https://www.ashleyhajimirsadeghi.com/blog/boyfriend-on-demand-2026>

¹¹ Associated Press. (2025). Rental Family spotlights real-life Japanese businesses that offer fill-in relatives and friends. AP news.

topgan¹². Uning xizmatidan foydalanayotgan insonlarning asosiy sababi esa yolg'izlik hissini kamaytirish va o'zini psixologik jihatdan yolg'iz his qilmaslikdir. Bu holat insoniy muloqotning ham iqtisodiy qiymatga aylanib borayotganini ko'rsatadi.

Boshqa tomondan olib qaraganda, bu xizmat turlari iqtisodiy foyda keltirishiga qaramay, bir qator salbiy jihatlariga ham ega. Masalan, virtual aloqalar insonlarni real jamiyatdan yanada uzoqlashtirishi mumkin. Reddit platformasi foydalanuvchilari ham virtual sun'iy intellekt hamrohlar haqiqiy ijtimoiy munosabatlar o'rnini bosolmasligi, aksincha ayrim insonlarni jamiyatdan yiroqlashtirayotgani haqida fikrlar bildirganlar¹³ va anonim chatbotlar ham yolg'izlik muammosini vaqtincha kamaytirishiga qaramay, uzoq muddatli ijtimoiy integratsiyani ta'minlamasligi haqida ham mulohazalar mavjud¹⁴. Shu bilan birga, yolg'izlik insonlarning mehnat unumdorligini pasaytiradi, ruhiy salomatlik bilan bog'liq xarajatlarni oshiradi hamda sog'liqni saqlash tizimiga qo'shimcha bosim yuklaydi. The Guardian nashrida chop etilgan maqolada ham raqamli aloqa vositalari insonlarni bir-biriga bog'layotgandek ko'rinsa-da, ko'plab insonlar o'zini yanada yolg'iz his qilayotgani qayd etilgan¹⁵. Jamiyatda insoniy munosabatlarning biznes manfaatlariga aylanishi esa kelajakda ijtimoiy qadriyatlarning o'zgarishiga olib kelishi mumkin.

Xulosa

Umuman olganda, zamonaviy jamiyatda yolg'izlik nafaqat psixologik yoki ijtimoiy muammo, balki iqtisodiy resursga ham aylanib bormoqda. Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning shiddatli rivojlanishi esa insonlarning mana shu kabi hissiy ehtiyojlariga asoslangan yangi biznes modellarini shakllantirdi. "Yolg'izlik iqtisodiyoti" sifatida tilga olinayotgan bu bozor segmenti bir tomondan innovatsion xizmatlar va yangi daromad manbalarini yaratmoqda, boshqa tomondan esa insonlarning real ijtimoiy aloqalardan uzoqlashuvi, ruhiy salomatlik muammolari va insoniy munosabatlarning qadrsizlanishi kabi xavfli tendensiyalarni kuchaytirishi mumkin.

Mening fikrimcha, "yolg'izlik iqtisodiyoti" zamonaviy jamiyatdagi eng murakkab va ziddiyatli iqtisodiy sohadir. Negaki sun'iy intellekt asosidagi virtual suhbatdoshlar, online psixologik xizmatlar va muloqot platformalari insonlarga vaqtinchalik emotsional yengillik hissini berish orqali texnologiyalarning inson hayotidagi rolini tobora oshiryapti. Ammo insoniy munosabatlarning raqamlashtirilishi jamiyat uchun uzoq muddatda juda salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli ushbu kelib chiqishi mumkin bo'lgan xavflarni oldini olish va kamaytirish uchun bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozim. Avvalo, jamiyatda real ijtimoiy aloqalarni rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni rivojlantirish muhim. Ayniqsa, yoshlarni sport, volontyorlik faoliyati, madaniy tadbirlar va jamoaviy loyihalarga jalb qilish orqali real muloqot muhitini yaratish mumkin. Shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalardan to'liq voz kechish emas, balki ulardan ongli va me'yoriy ravishda foydalanish kerak. Texnologiyalar insonlarning yolg'izligini chuqurlashtiruvchi vosita emas,

¹² Suki Desu. (2026). Shoji Morimoto – Renting friends in Japan. <https://skdesu.com/en/shoji-morimoto-rent-a-friend-in-japan/>

¹³ Reddit. (2024). AI companions vs real relationships: How virtual partners affect society. https://www.reddit.com/r/Futurology/comments/1gmvp5/ai_companions_vs_real_relationships_how_virtual/?solution=07b6aa8178115e4107b6aa8178115e41&js_challenge=1&token=bbbe4bf1c9a2b5160829c4be34da586165477e36524d4fcb552baca66a0465ec&jsc_orig_r=

¹⁴ Reddit. (2025). AI companion apps aren't helping lonely people get better socially.

https://www.reddit.com/r/AIChatCompanions/comments/1slfx5z/ai_companion_apps_arent_helping_lonely_people_get/

¹⁵ The Gardin. (2024, June 4). Loneliness: why digital connection is not always the cure

aksincha ularni yaqonlashtiruvchi omil bo'lishi kerak. Shuning uchun kelajakda "yolg'izlik iqtisodiyoti" rivojlanishi insoniy qadriyatlar va ijtimoiy munosabatlarga putur yetkazmasligini nazorat qilish ustuvor vazifalardan biri bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. World Health Organization [WHO].(2025). From loneliness to social connection: charting a path to healthier societies <https://www.who.int/publications/i/item/978240112360>
2. Associated Press. (2024). AI girlfriend and boyfriend apps are becoming more popular. AP News.
3. Review and summary: Boyfriend on demand. <https://www.ashleyhajimirsadeghi.com/blog/boyfriend-on-demand-2026>
4. Associated Press. (2025). Rental Family spotlights real-life Japanese businesses that offer fill-in relatives and friends. AP news.
5. Suki Desu. (2026). Shoji Morimoto – Renting friends in Japan. <https://skdesu.com/en/shoji-morimoto-rent-a-friend-in-japan/>
6. Reddit. (2024). AI companions vs real relationships: How virtual partners affect society. https://www.reddit.com/r/Futurology/comments/lgm4p5/ai_companions_vs_real_relationships_how_virtual/?solution=07b6aa8178115e4107b6aa8178115e41&js_challenge=1&token=bbbe4bflc9a2b5160829c4be34da586165477e36524d4fcb552baca66a0465ec&jsc_orig_r=
7. Reddit. (2025). AI companion apps aren't helping lonely people get better socially. https://www.reddit.com/r/AIChatCompanions/comments/1slfx5z/ai_companion_apps_arent_helping_lonely_people_get/
8. The Guardian. (2024, June 4). Loneliness: why digital connection is not always the cure